



**O'ZBEKISTON
MILLIY
UNIVERSITETI**

XABARLARI

**IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR
YO'NALISHI**



Gulchehra HOJIYEVA,

Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi, (PhD)

E-mail: durbora@mail.ru

Fotima MUSTAFOYEVA,

Buxoro davlat universiteti talabasi

SAN'ATGA DOIR TERMINLAR VOSITASIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI (O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqola tilshunoslikda frazeologiya va frazeologizmlarning tutgan o'rni, bu borada yetuk olimlar fikri, hamda san'atga oid terminlar vositasida yasalgan iboralar va ularning fransuz va o'zbek tillaridagi chog'ishtirma tahliliga baq'ishlangan.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, frazema, frazeologik qatlam, san'at terminlari, avj, nog'ora, faire chanter quelqu'un, jouer des flûtes, se mettre au diapason, connaître la chanson, jouer la comédie.

ВЫРАЖЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ЧЕРЕЗ ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ТЕРМИНЫ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОГО И ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация

Данная статья посвящена роли фразеологии и фразеологизмов в языкоznании, мнению зрелых ученых на этот счет, а также анализу выражений, составленных с использованием художественных терминов и их сочетаний во французском и узбекском языках.

Ключевые слова: Фразеология, фразеология, фразеологический пласт, терминология, кульминация, барабан, Faire chanter quelqu'un, jouer des flutes, se mettre au diapason, connaître la chanson, jouer la comédie.

EXPRESSION OF PHRASEOLOGICAL UNITS THROUGH ART TERMS (EXAMPLE OF UZBEKI AND FRENCH LANGUAGES)

Annotation

This article is devoted to the role of phraseology and phraseologisms in linguistics, the opinion of mature scientists in this regard, as well as the analysis of expressions made using artistic terms and their combination in French and Uzbek languages.

Key words: Phraseology, phraseology, phraseology layer, terms of art, climax, drum, faire chanter quelqu'un, jouer des flûtes, se mettre au diapason, connaître la chanson, jouer la comédie.

Kirish. Ma'lumki, san'atning ikki amaliy va badiiy turi mavjud. Badiiy san'at turlariga zardo'zlik, kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, libos yaratish singarilar, amaliy san'at turlariga esa, haykaltaroshlik, rassomlik, badiiy adabiyot kino, teatr, musiqa kabilalar mansub bo'lib, shuningdek, tasviriy va ifodali san'at turlari farqlanadi [11]. Ayrim bir san'at turlari tasvirlasa, boshqalari ifodalaydi. Mazkur san'at sohasiga doir terminlarning frazeologik birliliklarda ifodalanib kelish holatlarini ham tez-tez uchratish mumkin [7].

"Frazeologiya" so'zi grekcha "phrasis" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ifodalash, nutq normasi, "logos" tushuncha, ta'limot ma'nolarini ifodalaydi. Lingvistik termin sifatida u tilshunoslikning alohida bir bo'limini tashkil etib, ushbu bo'lim turg'un so'z birikmalarini o'rganadi. Tilshunoslikda ular frazeologizmlar yoki frazeologik birliliklar deb ataladi va biror tilga tegishli bo'lgan iboralarining barchasini ifodalash uchun xizmat qiladi [11]. Tilning lug'at tarkibiga faqat so'zlar emas, balki turg'un bo'lib qolgan so'z birikmalarini ham kiradi. Frazeologizmlar tilning leksikasiga kirishi sababli frazeologiyaga tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo'limi sifatida qaraladi [1].

Adabiyotlar tahlili. Fanda frazeologiya sohasida dunyo olimlari katta yutuqlarni qo'liga kiritgan va hozir ham ko'pgina yangiliklar amalga oshirilmoxda. Jumladan, fransuz tilshunosligida Sh.Balli (Французская стилистика. М., ИИЛ, 1961), rus tilshunoslardan G.A. Nazaryan (Фразеология современного французского языка. ВШ, 1987.), V.G. Gak (Беседы о французский слове. М., Просвещение, 1966.) N.M. Shanskiy (Фразеология современного русского

языка. М., ВШ, 1969.), V.V. Vinogradov (Основные фразеологических единиц в русском языке. М., 1972.) kabilar, shuningdek, o'zbek tilshunosligida A.Narziulov (К вопросу художественного перевода с французского на узбекский язык. Т., Фан, 1974.), Sh.Rahmatullayev (O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Т.: O'qituvchi, 1978), G'. T. Salomov (Tarjima nazariysi asoslari. Т.: O'qituvchi, 1983.), A.E. Mamatov (Hozirgi zamон o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari T., 1991.) hamda A.A. Abdauazizovlar (Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Т., Sharq, 2010) katta izlanishlar olib borib, soha rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida bugungi kunda F.A. Badalov (Frazeologik birliliklarning semantik xususiyatlarini o'rganishdagi ba'zi – bir mulohazalar. Xalqaro simpozium materiallari. Termiz. 2004.), N.N. Suvonova (Frazeologiyaning sistem-satx birligi sifatidagi talqini (fransuz tili materialida) fil.f.nom...disser. 2008.) Sh.S. Imyaminova (Nemis tili frazeologiyasi. Mumtoz so'z, Т., 2011), G.E. Hakimova (Zoonomik komponentli frazeologik birliliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlari. Avtoref. fil.f.nom. 2008) lar tomonidan frazeologiyaning turli qirralarini ko'rsatib beruvchi ilmiy ishlар amalgalashirildi [4].

Tahlillar. Til qurilishining lug'at sathida leksik va frazeologik qatlamlar mavjud. Lug'at sathidagi frazeologik qatlam (uni o'rganuvchi soha ham) frazeologiya deb yuritiladi. Frazeologiyaning hajmini keng tushunish va tor tushunish bor. Keng tushunishda frazeologiya doirasiga, so'zlarning turg'un birlashmalaridan tashqari, maqol, matal, aforizm ham mansub deb qaraladi. Frazeologiya deb so'zlarning semantik bog'lanishlarini tushunish ham mavjud. Bu hodisalardan faqat

bir turini – so‘zlarning turg‘un birlashmalarini – til birligi deb baholash mumkin. Olimlar aniq ilmiy kriteriyalarga suyanib, frazeologik birlik deb so‘zlarning barcha tur turg‘un birlashmalarini emas, balki shulardan bir qismini tan oladilar. Frazeologik birlik bo‘lish uchun so‘zlarning turg‘un birlashmasi obrazli ma’no, ko‘chma ma’no anglatishi shart. Frazeologik birlikdan (iboradan) yaxlitligicha anglashiladigan ma’no uning tarkibidagi so‘z-komponentlarga xos leksik ma’nolarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi, iboraning ma’nosini umumlashma ma’no, maxraj ma’no sifatida namoyon bo‘ladi [7].

Yuqoridagi fikrlarga hamohang aytish mumkinki, tilshunoslikda har bir tilning lug‘at tarkibi leksik va frazeologik qatlamlardan iborat va lug‘at tarkibidagi frazeologik qatlama frazeologiya sohasi deb yuritiladi [5].

Bizga ma’lumki, frazeologik birliklarning o‘rganilish darajasi rivojlanishi bilan birligida uning turli guruh va bo‘limlarga bo‘linishi kuzatiladi. Ushbu guruh va bo‘limlar frazeologik birliklar ifodalanishi va tuzilishining turli xususiyatlarga qarab ajratiladi. Tilshunoslikda frazeologiya qatlami leksikologiyaning kichik bir bo‘limi sanalib kelinardi. Keyingi yillarda uning ustida olib borilgan ko‘plab ilmiy izlanishlar va ulardag‘i turli yangilik jihatlari frazeologiya tilshunoslikning katta bir qismi deb qaralishiga olib keldi. Chunki uning tilda miqdori jihatidan ham, ma’nodorligi jihatidan ham juda keng ekanligi e’tiborga molikdir [2].

Frazeologik birliklar tilshunoslikda frazeogizm, frazeologik yoki turg‘un ibora, frazeologik birikma va ibora kabi bir nechta nomlar bilan ataladi [6].

Bir so‘z bilan aytganda, frazeologizmlar ikki va undan ortiq so‘zlarning turg‘un birikmasidir. Frazeologik birliklar (bundan keyin FB) larning tarkibida nechta so‘z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiylar ma’noga birlashadi va emotsiyal-ekspressiv ma’noni ifodalaydi. Agar erkin so‘z birikmalari nutq davomida yaratilsa, turg‘un so‘z birikmalari, ya’ni iboralar nutq davomida yaratilmay, tayyor holda qo‘llaniladi. Ular ba’zan so‘zga, so‘z birikmasiga va ba’zan butun bir gapga teng ma’noni anglatishi mumkin.

Qismalarga xos ma’nolar umumiylar iboradan anglashiladigan ma’noni to‘g‘ridan-to‘g‘ri izohlab kelmaydi, shu sababli iboralarda ifoda plani bilan mazmun plani orasidagi bog‘lanish shartlilik tashkil etadi. Bunda bittadan ortiq so‘z yaxlitligicha ma’lum bir obraz asosida ko‘chirish yo‘li bilan semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi. Ma’lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ana shunday ustama ko‘chma ma’noga «frazeologik ma’no» [10] deyish mumkin.

Akademik V.V. Vinogradov FBlarni ma’nosidagi motivatsion o‘zgarishlariga ko‘ra ya’ni frazemadan yaxlitligicha anglashilgan ma’no bilan uning tarkibidagi leksemalar anglatadigan ma’nolar orasidagi munosabat asosida frazemalarning uch semantik turini farqlaydi [10]:

1. frazeologik butunlik;
2. frazeologik chatishma;
3. frazeologik qo‘shilma.

I.B. Arnold ingliz frazeologik birliklarini uch turini farqlagan: set-expressions, semi fixed combinations, free phrases deb ajratilgan birliklar V.V. Vinogradov klassifikatsiyasiga to‘la mos keladi [9]. Lekin shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, ingliz tili frazeologik fondining asosini qismini frazeologik butunliklar tashkil qiladi.

FBlar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi murakkab vositalar bo‘lib, ular badiiy, siyosiy, publisistik matnlarning ifodaviy ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi, shuning uchun ham FBlarni o‘rganish stilistikada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, FBlar ixcham ma’no jihatidan salmoq dor birliklar sifatida davr ruhiga mos keladi, chunki hozirgi milliy qadriyatlarning tiklanish davri so‘zlovchidan tilni chuqur bilishni, fikrni ixcham, asosli obrazli va ta’sirchan shaklda ifodalashni talab etadi.

Jumladan, san‘at terminlari bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklarda ham obrazli ma’no mazmuni mavjud «avjiga minmoq», «avjiga chiqmoq» nima (o‘zining) – «avjiga chiqarmoq» kimdir nimanidir [7]. «Yuqori darajaga ko‘tarilmox», «avjiga chiqmoq», sinonimi: «avjiga minmoq», «avjiga mindirmoq»; «avjiga yetmoq» [7] kabi variantlari mavjud bo‘lib, o‘zbek tilida gar tarkibida asarda quyidagicha qo‘llanishini kuzatish mumkin: «Cho‘lga bahor keldi. Paxta terimi avjiga chiqqan kunlarda yo‘llar ham ot-arava, mashina va tuyu karvonlari bilan to‘lib-toshardi» (Sh. Rashidov).

Avj (arab tilidan olingan leksema cho‘qqi, baland) 1) o‘n ikki maqom majmuasidagi ma’lum sho‘ba nomi; 2) musiqa asarining yuqori pardalardagi cho‘qqisi, kulminatsiya doirisasi, ya’ni musiqa asarining eng baland registrdagi davomli kuy tuzilmasi. Maqomlarning cholg‘u va ayniqsa aytim bo‘limlari, ashula, katta ashula, suvora va yirik shaklli cholg‘u kuylardan keng o‘rin olgan jarayonga nisbatan qo‘llaniladi [8]. «Nog‘ora» atamasini bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklarni ham halq folklor adabiyotida uchratamiz, u arab tilidan o‘zlashgan co‘z bo‘lib, «naqqora zarb beruvchi» mazmuniga ega ekanligi aniqlandi. Urma musiqa cholg‘u asbobi sifatida tuzilishi turlicha; tuvaksimon kosaxonasi, asosan, sopoldan yasaladi. Kiyik yoki echki (ayrim joylarda boshqa hayvonlar) terisi bilan qoplanadi. Qadimdan harbiy, jarchi hamda ommaviy marosim cholg‘u asbobi sifatida Sharq mamlakatlarida ma’lum bo‘lgan. Hozirda o‘zbek, tojik, uyg‘ur, arman xalq sozandalari tomonidan qo‘llaniladi.

Tilimizda nog‘ora(si)ga o‘ynamoq ya’ni kimningdir izmi bilan ish ko‘rmoq, variant sifatida nog‘ora(si)ga o‘ynatmoq, childirma(si)ga o‘ynamoq FBlari bilan bog‘liq «Xm, o‘shalarning nog‘orasiga o‘ynayman degin...» (Sh. Rashidov, Bo‘rondan kuchli). «Senga kim qo‘yibdi birovning childirmasiga o‘ynashni». (Said Ahmad, Qadrdon dalalar) [7,186] misollar ko‘plab uchraydi.

«To‘ydan ilgari nog‘ora qoqmoq» ya’ni ro‘yobga chiqishi aniq bo‘laman narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan oldin gapirib yurmoq, variant sifatida «to‘ydan oldin nog‘ora chalmoq», sinonim qilib, «podadan oldin chang chiqarmoq» frazeologik birliklarini keltirish joizdir. «Kampirga aytib qo‘ying, to‘ydan ilgari nog‘ora qoqib yurmasin... O‘qishni tamom qilganimdan keyin bir gap bo‘lar» (G. G‘ulom. Yodgor) [7]. Mazkur iboraga fransuz tilidagi “Il ne faut pas chanter victoire avant le temps” FBi ekvivalent bo‘lib keltirishni ta’kidlash o‘rinli.

“Do‘ppi” termini bilan, asosan, o‘zbek tili madaniyatiga xos bo‘lgan iboralar talaygina bo‘lib, do‘ppini yerga qo‘yib – fikrini jamlab; do‘ppiqaytaqi - parvoysi falak; do‘ppining tagidakkina – kichkinagina; do‘ppisi osmonda – niroyatda xursand; do‘ppisini osmonga otmoq – quvonmoq; do‘ppisi yarimta – beg‘am, yallo qilib; do‘ppi tor kelganda – imkonsizlikda; do‘ppini almashtirgandek – osongina; do‘ppisini ol desa, kallasini olmoq – oshirib yubormoq; do‘ppisini ol desa, boshini olmoq – oshirib yubormoq; do‘ppisini osmonga irg‘itmoq – quvonmoq; do‘ppisini osmonga tashlamoq – shodlanmoq; birovning do‘ppisini birovga kiygazmoq – o‘z foydasiga boshqalarni laqillatmoq; Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi. – muhimi tansog‘lik; Do‘ppining tagida odam bor. – hamma joyda odam bor. – kabi frazeologik birliklar tilda keng qo‘llaniladi [3].

Mulohazalar. Fransuz tilidagi san‘atga oid terminlar vositasida yasalgan xalq og‘zaki ijodi va ijrochilik san‘atiga xos “faire chanter quelqu’un” (“birovni gullashga majbur qilmoq”), “se tirer des flûtes”, “jouer des flûtes” (qochib qolmoq, o‘zini qutqarmoq), “Le chat parti, les souris dansent.” (“Sulaymon o‘ldi, devlar qutildi”), “se mettre au diapason” (“maromiga tushmoq”), “connaître la chanson” (“yo‘lini bilmoq”), “jouer la comédie” (“rol o‘ynamoq”), “entrer en scène” (“mojaroga qo‘shilmoq”), “sans tambour ni trompette” (“imi-jimida”), “C’est toujours la même musique.” (“Eski

hammom, eski tos") (Tarjima: G.S.Hojiyeva) kabi iboralarni ularning o'zbek tilidagi muqobili asosida tahlil qilib, mazkur o'rinda ko'proq fransuz tilidagi FBlar yasalishida san'atga oid so'z va so'z birikmalaridan foydalaniganligini, ammo ularning o'zbekcha muqobillari ham milliy til xusussiyatidan kelib chiqqan holda o'rinali tarjima qilinganligini ko'rish mumkin.

Shu o'rinda frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun plani o'ziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga ko'ra frazeologik birliklar alohida yondashishni o'rganishni talab qildi, deb aytilish mumkin. Frazeologik birlik va frazeologiya atamalari bilan bir qatorda idioma va idiomatika atamasi ham qo'llanadi. FBlar obraslilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi murakkab vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy, publisistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, qiyoslanayotgan ikki noqardosh til – fransuz va o'zbek tillarida san'at

terminosferasidagi mushtaraklik, differensial belgilar, o'ziga xos umumiylig va xususiylik, shuningdek, terminlarning tarixiy ildizlari va ularning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari, yasalishi, sanatga oid terminosistemasing turli tizimli tillar bilan uyg'unlashganligi, ularning milliy-madaniy bog'liqligi va farqlari, tahlil etildi, san'at va uning klassikatsiyasi o'rganilib misollar asosida asoslandi. Aytish joizki, xalqning xarakteri va uni tashkil etuvchi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash juda mushkul vazifa bo'lib, o'zbek va fransuz millati shaxsiga xos xususiyatlar, ikki til kesimidagi sanatga doir terminologiyasidagi jihatlar boshqa ko'p til va millatlarga ham xosdir. Shunga qaramay, tahlilga tortilgan leksik-semantik birliklar, milliy-madaniy dominantlar o'zbek va fansuz terminologiyasida «o'zbek va fransuz milliy xarakteri»ni eng yuqori darajada ifodalovchi hamda aynan o'zbek va fransuz shaxsining milliy o'ziga xosliklarini farqlovchi lisoniy vositalar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Abduaizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent, Sharq, 2010. – B.78.
2. Badalov F.A. Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini o'rganishdagi ba'zi-bir mulohazalar. Xalqaro simpozium materiallari. Termiz, 2004. – B.44.
3. Hojiyeva G.S. San'atga oid terminlarning leksik-semantik va milliy-madaniy tahlili (fransuz va o'zbek tillari misolida). Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2023. – B.97.
4. Hojiyeva G.S. Ranglar vositasida hosil bo'lgan fransuz frazeologik birliklarining tarjimada aks ettirilishi. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dis. – Toshkent, 2012. – B.9-11.
5. Imyaminova Sh.S. Nemis tili frazeologiyasi. Mumtoz so'z, Toshkent, 2011, – B.3.
6. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Fil.f.dok...dis.: 10.02.02. O'zb.FA Tilshunoslik instituti, Toshkent, 1991, – B.270.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Qomuslar bosh tahririyati, T., 1992, – B.3.
8. Sayfullayev B.S. Madaniyat va san'at atamalari qomusiy lug'ati. – Toshkent, 2013. – B.5.
9. Арнольд И.В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность. – СПб: Изд-во С.Петербург. ун-та, 1999. – С.242-243.
10. Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII- XIX веков. – Москва, 1982. – С.6, 85.
11. Назарян Г.А. Фразеология современного французского языка. ВШ, 1987, с. 5.



O'zMU XABARLARI

БЕСТНИК НУУЗ

ACTA NUUZ

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI**

**JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2023
1/5/1**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

I.U.MADJIDOV – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Y.S.ERGASHOV – f-m.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Ashirov A.A. – t.f.d., prof.

Balliyeva R. – t.f.d., prof.

Malikov A.M. – t.f.d., prof.

Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Mo'minov A.G. – s.f.d., prof.

Nishonova O.J. – f.f.d., prof.

Abdulayeva N.B. – f.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.

Utamuradov A. – f.f.n., prof.

Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Shirinova R.X. – fil.f.d., prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sa'dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: **Z.A.PARDAYEV**

TOSHKENT – 2023

Saodatov A. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakillantirishda Orol dengizidagi o‘zgarishlarni o‘rni	174
Toshev O. Konfliktlar haqidagi hozirgi zamон konsepsiyalari	177
To‘lanov M. Sog‘lom turmush tarzini shakllanishining ijtimoiy-tarixiy, falsafiy va diniy axloqiy asoslari.....	180
To‘xtayev B. Mamlakatimizda “Elektron parlament” tizimini yanada takomillashtirish masalalari	183
Usmonova M., Yo‘ldashaliyeva N. Biologiya fanlarini o‘qitishda talabalarning kasbiy yo‘nalishini rivojlantirish.....	187
Хамирова С. Сравнительный метод при изучении теоретических понятий в 8 классе	189
Xoliqov B. Kurashchilarda texnik usullarning samaradorligini oshirishda mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish	193
Xoliqulov B. Kompyuterli modellashtirish postulatlari va funksiyalarining turli sohalarda amaliyatga qo‘llash metodlari	197
Kolyigitova B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchlarining ijodiy qobiliyatlarini badiiy adabiyotlar asosida shakllantirishning samarali usullari	200
Xo‘jamberdiyeva Sh. Bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga doir zamonaviy yondashuvlar	204
Haydaraliyev Sh. Ijtimoiy-siyosiy fanlarda hamkorlik tushunchasi	206
Shermuhammedov A. 2022 yilgi futbol bo‘yicha 22-jahon championati musobaqasida jamoalar tayyorgarliklarini tadqiq etishdagi zamonaviy yondashuvlar	210
Shoymardonova D. O‘zbekistonda zamonaviy umumta‘lim mакtablari sharoitida bolalarning jismoniy tarbiysi, mакtab sportining muammolari	215
Yunusaliyev J. Didaktik tamoyillar tahlili	218
Yusupova Sh. Ingliz tili darslarida talabalar texnik tafakkurini rivojlantrishning innovatsion shakllari	221
Yakubova Sh. Talabalarda pozitiv dunyoqarashni shakllantirishga oid yondashuvlar	224
Yaxshibayeva N. Developing critical thinking through active learning	227
Yaxshiboyev Sh. Jamiaty “siyosiy madaniyati” va konseptual masalalari	230
Filologiya	
Abdulkamidova X. Isajon Sulton romanlarida badiiy-psixologik xronotop	234
Bo‘riyeva N. O‘zbek tilidagi millat va shaxs konseptining lingvomadaniy tahlili	238
Valiyeva N. The classification of chemical terminology in modern english and uzbek linguistics	241
G‘oziev A. “Devoni Fig‘oniy” haqidagi ba’zi qaydlar	244
Dauletmuratova M. Ingliz tilidagi IT terminlarni o‘rganish va o‘rgatish ahamiyati	247
Yuldasheva D. Turkiy tillarda qush nomlarining o‘rganilish tarixiga doir	250
Karamanova Sh. Hayotiy tafsilotlar va ijodkor uslubi (A.Oripov she’riyati misolida)	253
Kenjayeva P., Rajabov F. Yusuf Ziyo O‘rtach she’riyatida lirik qahramon tasviri	255
Mamatjanova N. Murojaat mayli modalligi tushunchasi va uning tilshunoslar tadqiqotlarida qo‘llanilishi	259
Mamatov R. Gerta Myullerning zamonaviy nemis adabiyotidagi realistik qarashlari	262
Mansurova N. Ingliz va o‘zbek tillaridagi marketing va menejment terminlarining semantik xususiyatlari	265
Maxsudova N. Abdulhamid Nurmonovning fonetik, fonologik, morfonologik qarashlari	268
Murtozayeva N. Ingliz tilining xalqaro til sifatida o‘qitilish tamoyillari	271
Muxiddinova B. Ingliz va o‘zbek tillaridagi qo‘shma so‘zlearning lingvokulturologik xususiyatlari	274
Nazarova G., Kenjayeva V. The influence of naturalism on american literature	277
Nazirqulova D. O‘zbek tilida xushmuomalalik kategoriyasining ifodalanishi	279
Nasirova G., Rakhimova Y. Gender stereotypes and culture in children’s literature	282
Nasirova Z. Yukio Misima asarlarida izohlarning qo‘llanilishi	285
Niyozova Sh. Comparative analysis of phraseological units with somatic component in english and russian languages ..	288
Olimova D. Lingvistik baho nazariyasining rivojlanishi va asosiy yondashuvlar	291
Rahmonova S. Fikrlarni ularning funktsional ekvivalentlariga bog‘laydigan til signallarini tarjima qilish	294
Rahimboeva H. Ierarxik korpus yaratish metodlari, izohlash (annotatsiya) sxemalari va foydalilaniladigan elektron uskunalar	297
Sapayeva B. Ergash gapda absolyut gap tuzilishi va uning ahamiyati	300
Safarova X. Fransuz tilidan ingliz tiliga o‘zlashma so‘zlearning fonetik assimilyasiyaga uchrash yo‘llari	303
Siddikova I., Nartayeva M. Stomatologik terminlarning etimologik va funksional xususiyatlari	306
Sohibova Z. O‘zbek peyzaj lirikasida qish fasli tasviri	309
Tahirova Sh. O‘zbek tili so‘zlashuv uslubiga kirib ommalashgan qo‘shma fe’llarning struktur xususiyatlari	312
To‘rayeva Sh. So‘z birikmasining tibbiy nutqda qo‘llanilishi	315
Turayeva Sh. Yuridik ritorikaning paralingvistik jihatlari	319
Xamidov N. Otlarda erkalash-kichraytirish shakllarining uslubiy xususiyatlari	323
Xodjayeva D., Murodova N. Toponomika va topomimlarning semantik tahlili	326
Kolmonova S. Retronimlarning leksikografik xususiyatlari	329
Kolova M. Shevalar korpusida sifat so‘z turkumini razmetkalash masalasi	332
Hojiyeva G., Mustafoyeva F. San‘atga doir terminlar vositasida frazeologik birliklarning ifodalanishi (o‘zbek va fransuz tillari misolida)	335
Ergasheva G. Ingliz va o‘zbek tillarida kasbga oid leksikaning shakllanish xususiyatlari	338
Ermetova D. Some reflections on the monolingual terminographic treatment of grammatical metalanguage in french ..	341
Yunusov N. Ingliz va o‘zbek tilida sifat so‘z turkumilarni tadqiq qilishning nazariy masalalari	345